

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BABAYEV SHAVKAT BAYRAMOVICH

**BYUDJET TIZIMIGA JISMONIY SHAXSLARDAN
UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZ QILISHNING
METODOLOGIK MASALALARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2025

UDK: 336.22:336.14-047.72(575.1)

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Babayev Shavkat Bayramovich

Byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini
prognoz qilishning metodologik masalalari..... 3

Бабаев Шавкат Байрамович

Методологические вопросы прогнозирования налоговых поступлений,
взимаемых с физических лиц в бюджетную систему..... 39

Babaev Shavkat Bayramovich

Methodological issues of forecasting tax revenues collected from
individuals to the budget system..... 79

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 85

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

BABAYEV SHAVKAT BAYRAMOVICH

BYUDJET TIZIMIGA JISMONIY SHAXSLARDAN
UNDIRILADIGAN SOLIQ TUSHUMLARINI PROGNOZ QILISHNING
METODOLOGIK MASALALARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Iqt692 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tashmuradova Buvsara Egamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Almardonov Muxamadi Ibragimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Gadoyev So'hrob Jumakulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent


Yetakchi tashkilot:


Samarqand iqtisodiyot va servis instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.L16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 13 » 11 soat 14 da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks : (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1809 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72; faks : (99871) 239-43-51. e-mail: tdiu@tdiu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 28 » 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil « 28 » 10 da 93- raqamli reestr bayonnomasi).


S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor


U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor


N.B. Abdusalomova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ijtimoiy xarajatlarni samarali rejalashtirish, fiskal siyosatni maqbullashtirish va iqtisodiy faollikka moslashuvchan byudjetni shakllantirish imkonini yaratishda byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Mazkur jarayonda mehnat bozori dinamikasi, aholi daromadlari tarkibi, inflyatsiya darajasi, raqamli ish haqi platformalarining rivoji va soliq intizomini hisobga olgan holda matematik-statistik modellar, mashinali ta'lim usullari va makroiqtisodiy prognozlash algoritmlaridan foydalanish orqali soliq tushumlarining real prognozi tuzilib, byudjet xarajatlarini muvofiqlashtirish va fiskal risklarni boshqarish imkoniyatlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, "grant hisobidan moliyalashtiriladigan xarajatlarni hisobga olmagan holda xarajatlarning umumiy miqdori 2024/25-yilda 35,1 %ni ko'rsatmoqda. Soliq tushumlari doirasida 2024/25-yilda 82,304 mln AQSH dollarini (bojxona va aksiz solig'i 24 %, QQS 24 %, shaxsiy daromad solig'i 24 %, korporativ daromad solig'i 14 %, boshqa soliqlar 4 % hamda mulk solig'i 0,4 %) tashkil etmoqda"¹. Ushbu ko'rsatkichlardan kelib chiqib, "Jahon mamalakatlari, ular tomonidan olib borilayotgan soliq siyosatida, soliq tushumlarini oshirish uchun har tomonlama baholash zarurligi yuzasidan soliqlarni to'lash reytingini (soliq to'lash rejimlarining qulayligi)" inobatga olishni taklif etayotganligi dolzarb hisoblanadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognozlash jarayonida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga asoslangan indikativ yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli davlat byudjeti daromadlari hajmini oldindan baholashning asosi sifatida makroprudensial indikatorlardan keng foydalaniladi. O'rta muddatli fiskal siyosatni shakllantirish hamda reprezentativ soliq tizimini joriy etish sharoitida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognozlashda kombinatsiyalashgan metodologik yondashuvlar ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonda alohida soliq turlari kesimida imitasion, deterministik va adaptiv modellashtirish usullaridan foydalanish soliqqa tortish bazasini chuqur tahlil qilish, soliq tushumlarining barqarorligini oshirish hamda byudjet daromadlarining o'sish salohiyatini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, soliq prognozlarini takomillashtirishda xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan ilg'or uslubiyotlarni mahalliy sharoitga moslashtirish ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta muddatli davlat byudjetini rejalashtirish tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, davlat byudjeti daromadlarini prognozlashda yangicha konseptual yondashuvlarni shakllantirishni talab qilmoqda. Bunda nafaqat fiskal barqarorlikni ta'minlash, balki o'rta muddatli istiqbolda davlat moliyaviy siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan

¹ <https://www.pwc.com/na/en/assets/pdf/2024-pwc-analytics-page.pdf>

modellarni ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu holat jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlari bo'yicha ham prognoz ko'rsatkichlarini o'rta muddatli davrga ishlab chiqishda yangi mazmundagi ilmiy tadqiqot ishlarini taqozo etmoqda. "Yashirin iqtisodiyot" ni qisqartirish orqali soliq bazasini qo'shimcha kengaytirish imkoniyatidan foydalanish, hududlarning fiskal salohiyatini puxta o'rganish natijasida soliqqa tortish manbalarini to'liq aniqlash va qamrab olish, daromadlar prognozini sifatli shakllantirish, bundan tashqari, xarajatlar ulushi oshib borayotgan bir sharoitda, mahalliy byudjetlar daromadlarini prognoz qilishning yagona uslubi mavjud emasligi, ularning asosiy daromad manbai bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash zarurligi natijasida ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda PF-229-son "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 26-sentyabrda PF-5837-son "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 29-dekabrda PQ-422-son "O'zbekiston Respublikasining 2024-yil uchun mo'ljallangan Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonunining ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Davlat byudjetiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognozashtirishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar, oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan

² Dissertatsiya ishida quyidagi xalqaro tashkilotlar, xorijiy ilmiy-tadqiqotlar va iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan: <https://www.ifo.de/en/publikationen/2018/article-journal/abundantly-flowing-tax-revenues-huge-challenges-expectations> yoki https://www.grips.ac.jp/r-center/en/research_projects/carbon-taxes-and-competitiveness; https://www.cri-world.com/publications/qed_dp_169.pdf. Tax analysis and revenue forecasting -- Issues and Techniques --By Glenn P. Jenkins Chun-Yan Kuo Gangadhar P. Shukla. Harvard Institute for International Development Harvard University June 2000; <https://www.nyc.gov/assets/omb/downloads/pdf/methodology-2019-05.pdf>. Tax revenue forecasting documentation. Financial Plan Fiscal Years 2017–2021. Tax policy, revenue forecasting & economic analysis task force. The City of New York, Bill de Blasio, Mayor, Office of Management and Budget, Melanie Hartzog Budget Director, Francesco Brindisi Deputy Director; <https://www.gov.scot/binaries/content/documents/govscot/publications/research-and-analysis/2017/04/review-tax-revenue-forecasting-models-scottish-housing-market/documents/00516712-pdf/00516712-pdf/govscot%3Adocument/00516712.pdf>. A review of tax revenue forecasting models for the scottish housing market. Alma Economics, Scott Cameron, Nick Spyropoulos, Aliya Saied-Tessier, Sandu Gusanu, Napoleon Barkis, Study commissioned by the Scottish Government; [https://cdn.istanbul.edu.tr/file/JTA6CLJ8T5/87BB10AA93FB45B09DE0B76C27CD09A9.Somparison of tax revenue forecasting models for Turkey.Hamza Erdoğdul](https://cdn.istanbul.edu.tr/file/JTA6CLJ8T5/87BB10AA93FB45B09DE0B76C27CD09A9.Somparison%20of%20tax%20revenue%20forecasting%20models%20for%20Turkey.Hamza%20Erdo%252D%2520dul.pdf). DOI: 10.26650/PB/SS10.2019.001.075;

Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligining Ilmiy-tadqiqot moliya instituti (NIFI), Moskva Davlat Universiteti Soliq siyosati markazi, Garvard xalqaro taraqqiyot instituti (Harvard Institute for International Development), Nyu-York shtatining menejment va byudjet ofisi (New York, USA), Avstraliya Parlamentining byudjet ofisi (Parliamentary Budget Office, Australia), Xalqaro rivojlanish markazi (Center for international development, California), AQSH Kongressining Byudjet boshqarmasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC), Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (IDA), Germaniyaning iqtisodiy tadqiqotlar instituti (DIW), Xalq xo'jaligini prognozlash instituti, Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotining Soliq siyosati va ma'murchiligi markazi, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Davlat byudjetiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognozlashtirishning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan izlanishlar asosida quyidagi qator ilmiy natijalar olingan: soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag'batlantirish, soliq yukini kamaytirish hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirishga qaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i tizimi byudjetning asosiy manbalaridan biri sifatida obyektiv zarur xususiyatga egadir. Ushbu soliqning, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida dolzarbligi va ahamiyati oshib bormoqda, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlar va ishbilarmonlarning aholi umumiy tarkibidagi salmog'i ular daromad darajalarining oshib borishi shuni taqozo qiladi. Ma'lumki, aholi pul daromadlarini mustahkamlash respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqishida jamiyatimizning poydevori sifatida ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan eng muhim bo'lgan sohaga aylanib bormoqda.

Jahonda byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning metodologik masalalari bo'yicha tadqiqotlarda quyidagi qator yo'nalishlarga e'tibor qaratilmoqda, jumladan: aholi daromadlarini dinamik tahlil qilish va mehnat bozori o'zgarishlarini hisobga olgan prognoz modellarini ishlab chiqish; soliq intizomi va to'lovchilik xulq-atvorini baholashda xulq-atvor yondashuvlarni joriy etish; mashinali ta'lim va sun'iy intellekt asosida real vaqtda prognozlash algoritmlarini qo'llash; inflyatsiya, yalpi ichki mahsulot o'sishi va bandlik darajasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ta'sirini kompleks modellashtirish; norasmiy sektordagi mehnat faoliyatini inobatga olish va uning soliq bazasiga ta'sirini aniqlashga qaratilgan ilmiy yondashuvlarni rivojlantirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat byudjetiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishning ilmiy-metodologik jihatlari bir qator xorijlik iqtisodchi olimlari tomonidan ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, M.Romanovskiy, O.Vrublevskaya, V.Edronova, M.Vasileva, Ye.Raznik, I.Samsonova, Ye.Lavrenchuk, S.Yefimov, A.Pogorleskiy, A.Gorbunov, V.Kashin, I.Svetunkov, T.Naydenova, I.Shvesova, A.Kokin, A.Edronov, N.Taktarov, M.Migunova, Ye.Sheredeko, M.Pinskaya, L.Koroleva,

T.Ermoshina, V.Korosteleva, M.Pilsina, A.Kazmina, I.Orobinskaya, Ye.Smirnova va boshqalar tomonidan muayyan tarzda ilmiy ishlar olib borilgan³.

O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlaridan S.Shirinov, Sh.Toshmatov, K.Usmonov, J.Urmonov, S.Xudoyqulov, U.Yuldasheva, A.Musagaliev, B.Sanaqulova, Sh.Qiyosov, N.Ashurova, S.Elmirzayev, O.Meyliyev, A.Islomqulov, A.Bozorov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida qisman o'z aksini topgan⁴.

³ Налоги и налогообложение. – 5-е изд. / Под ред. М.В. Романовского, О.В. Врублевской. – СПб.: Питер, 2006. – С. 309.; Попков С.Ю. Налоговое прогнозирование и планирование в системе управления бюджетом: на примере бюджета города Москвы: диссертация кандидата экономических наук.; Едронова, В.М. Прогнозирование налоговых поступлений в субъекте Российской Федерации/ В.М. Едронова, Н.Н. Акимов // Финансы и кредит. – 2008. - №17 – 51-54 с.; Васильева М.В. Методы налогового прогнозирования на макроуровне / М.В.Васильева // Управленческий учет. – 2011. - №6 – 63-73 с.; Разник Е.Д., Самсонова И.А. Прогнозирование и планирование в налогообложении: Учебное пособие. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2006. 14с.; Лавренчук Е.Н. Налоговое прогнозирование. Экономические науки 2011, 1(74).; Ефимов С.С. Формирование системы налогового прогнозирования и планирования на макроуровне. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Орёл, 2014. 22 с.; Погорлецкий А.Я. Принципы международного налогообложения и международного налогового планирования. СПб, 2005, 78 с.; Горбунов А.Р. Налоговое планирование и снижение финансовых потерь. – М.: СО «Анкил», 1993.; Кашин, В.А. Полный словарь терминов и нормативных понятий, используемых в деятельности ФНС России АНС России и Росфинмониторинга / В.А. Кашин, А.Б. Паскачев, К.В. Седов. – М.: Магистр, 2007. – 541с.; Светульников И.С., Светульников С.Г. Методы социально-экономического прогнозирования. Том 1. Теория и методология. – Москва: Юрайт, 2015. – 351 с.; Найденова Т.А., Швецова И.Н. Прогнозирование и планирование налоговых доходов местного бюджета (на материалах МО ГО «Сыктывкар»). Журнал. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – Москва: Издательство Научно-информационный издательский центр и редакция журнала «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук», 2014. – С. 187-197.; Кокин А.С., Едронов А.В. Применение корреляционно-регрессионного анализа в прогнозировании налоговых поступлений в бюджет субъекта федерации. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2010, № 2 (1), с. 233–241.; Н.Н.Тактаров, Л.О.Тактарова. Краткосрочное прогнозирование налоговых поступлений в консолидированный бюджет Республики Мордовия. Налоги и финансы № 3/2014. Стр.16.; Мигунова М.И. Основы налогового планирования и прогнозирования. Учебное пособие. Красноярск, 2009. 5-6 стр.; Шередеко Е.В., Пинская М.Р. Прогноз поступлений налога на доходы физических лиц с учетом территориального размещения человеческого капитала. // Налоги и налогообложение» № 12. 2016 год. – С. 928-938.; Королева Л.П., Ермошина Т.В. Анализ влияния норматива отчислений от налога на доходы физических лиц в бюджеты городских округов на уровень их бюджетообеспеченности и привлекательности (на примере городских округов субъектов Приволжского федерального округа РФ). // Налоги и налогообложение. – 2014. – №1. – С.7-22.; Коростелева В.В. Анализ факторов, влияющих на поступления налога на доходы физических лиц (на примере Ханты-Мансийского Автономного Округа-Югры) // Экономика и социум. - 2014. -№1-2 (10). – С. 13-21.; Пыльцина М.В., Казьмина А.Г., Оробинская И.В. Минимизация налога на доходы физических лиц с использованием вспомогательного способа // Финансы и кредит. – 2012. – №21(50).; Смирнова Е.Е. Эффективность администрирования налога на доходы физических лиц // Научное мнение. – 2015. – №2-3. – С. 37-40.

⁴ Shirinov S.E. Davlat byudjetining solikli daromadlarini prognoz qilish uslubi-yatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil. 16-21; 30-32-b.; Toshmatov Sh.A. Korxonalarni rivojlantirishda soliqlarning roli. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya, 2008.-204 b.; Usmonov K.A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2025-yil. 21-25; 29-34-b.; Urmonov J.J. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq mexanizmi vositasida tartibga solishni takomillashtirish masalalari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. <http://diss.natlib.uz>. 2018-yil. 27, 218-220, 225-230-b.; Xudoyqulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2019-yil. 14-16; 20-21; 28-29-b.; Yuldasheva U.A. “Hududlar soliq salohiyatini oshirish mexanizmini takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil.; Musagaliev A.J. Mintaqa byudjet daromadlarini shakllantirishda yuridik shaxslarni soliqqa tortish mexanizmlarining samardorligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2019-yil.; Sanaqulova B.R. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash. Iqtisodiyot fanlari

Biroq, yuqorida ko'rsatilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida mahalliy byudjetlarning ayrim jihatlari tadqiq etilgan bo'lsa-da, aynan, byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning metodologik masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning metodologik masalalari bilan bog'liq jarayonlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishning ilmiy-nazariy jihatlarini yoritib berish;

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishda qo'llaniladigan modellar yaratish orqali hududlar kesimida soliq to'lovchilarni soliq salohiyatini baholab borish hamda indikator tizimlarini belgilab beradigan asosiy va o'zaro ta'sir etadigan elementlarni aniqlab berish;

mahalliy (yuqori va quyi) byudjetlar daromadlarini tarkibi, xarajatlar bo'yicha yo'nalishlarini tavsiflash hamda tasniflab berish;

soliq salohiyatini muntazam oshirib borish orqali strategik tahlil metodologiyasini ishlab chiqish, so'ng har bir hududni soliq salohiyatini takomillashtirishni oldindan rejalashtirishda foydalanish imkoniyatlarini aniqlab berish;

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishning zarurligini asoslash hamda uni aniqlab beradigan ko'rsatkichlarni tizimli tadqiq etib borish;

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning prognoz jarayoniga ta'sir darajalarini baholash hamda soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirib borish, soliqlardan kelib tushadigan tushumlarni barqarorligini ta'minlash;

doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. <http://diss.natlib.uz>. 2016-yil.; Qiyosov Sh.U. Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati.; 2023-yil. Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. <http://diss.natlib.uz>. 2018-yil. 204-2017; 212-214-b.; Elmirzayev S.E. Korporativ moliyani boshqarishda soliq munosabatlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. <http://diss.natlib.uz>. 2017-yil.; Meyliyev O.R. Mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2023-yil.; Islomqulov A.X. Byudjet daromadlarida bevosita soliqlar tushumi barqarorligini ta'minlash yo'llari. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. <http://diss.natlib.uz>. 2012-y.; Bozorov A.A. O'zbekistonda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2023-yil.

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilish jarayonida soliq tahlilini amalga oshirish, uni baholab borish yuzasidan uslubiy jihatdan tavsiyalar ishlab chiqish maqsadida ularga baholash vositalarini tizimlashtirib, undan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni ko'rsatkichlari, ularga berilayotgan imtiyozlar orqali undiriladigan soliq tushumlari yuzasidan uslubiy yondashuvlarni baholashning kompleks metodologiyasini ishlab chiqish;

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilish bo'yicha ko'p omilli ta'sirlarni ekonometrik tahlillarga asoslanib baholash;

jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognozi bo'yicha soliq tushumlarini oshirishni ta'minlab borishda yuzaga keladigan doimiy muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi soliq tizimidagi jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar belgilab olingan.

Tadqiqotning predmeti turli darajadagi byudjetlarga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar bo'yicha soliqlarni prognoz qilish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraktsiyalash, kuzatuv, umumlashtirish, guruhlashtirish, taqqoslash, statistik va ekonometrik modellashtirish, korrelyatsion va regression tahlil singari usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish metodologiyasi soliq to'lovchining o'zidan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishning ichki axborot manbalari bilan bir qatorda statistika organlari, investitsiya dasturlari, litsenziya beruvchi tashkilotlar va jamoatchilik nazorati tomonidan olinadigan tashqi axborot manbalari va omillarni sintezlash asosida takomillashtirilgan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortishda soliq bazasining kengayishi va hisob-kitoblar aniqligini ta'minlovchi soliq ma'muriyatchiligi metodologiyasi "Ko'chmas mulklarni bozor qiymati asosida baholash orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish tartibi"ni ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan;

jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda soliq turlari bo'yicha soliq xavfini baholash metodologiyasi soliqlarni prognoz qilish va byudjet jarayonida yuzaga keladigan soliq xavfini baholash modeli, mahalliy byudjetning moliyaviy xavfini aniqlash uslubiyati, byudjet daromadlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash asosida prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangandan keyin soliq tushumlarining bir maromda byudjetga tushishi bilan bog'liq xavflarni aniq baholash imkonini yaratish orqali takomillashtirilgan;

hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, tuman yoki shaharlarda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlarga viloyatdagi yakka

tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan eng yuqori stavkalarni qo'llash vakolatini berish taklif etilgan;

shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga ommaviy dam olishga yoki turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo'yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etish vakolatini berish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (noturar ko'chmas mulk obyektlari bundan mustasno) bo'yicha birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlar ishlab chiqilgan;

2025-yil 1-iyuldan boshlab ayrim holatlarda deklaratsiyani soliq organlariga taqdim etish talabining joriy etish taklifi ishlab chiqilgan;

byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning metodologik jihatidan kelib chiqib, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulk va yer soliqlarini 2025-yilda to'lanadigan soliq summasi 2024-yilda hisoblangan summadan ya'ni 1,3 baravaridan oshmaslik taklifi asoslangan;

2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar ishga qabul qilingan kambag'al oilalar a'zolari (ish haqi kamida 1,7 mln so'mni tashkil qilganda) uchun ijtimoiy soliq stavkasi 1 foiz miqdorida belgilash; 2024-yil 1-sentyabrdan 2027-yil 1-sentyabrga qadar maktab, kollej va texnikum o'quvchilariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i hamda ijtimoiy soliq 1 foiz miqdorida to'lanishi belgilash; 2028-yil 1-yanvarga qadar magistral yo'llar bo'yida ko'chma savdoni tashkil qilgan yoshlar (30 yoshgacha) faoliyatining dastlabki 6 oyi davomida soliqlarni to'lashdan ozod etish taklifi ishlab chiqilgan;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalarini indeksatsiya qilish taklifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv va usullar, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, "Ochiq byudjet" portali rasmiy statistik ma'lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar bo'yicha turli darajadagi byudjetlarga soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonini yanada takomillashtirish orqali byudjetlar daromadlarini rejalashtirishda jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar doirasida soliq tushumlarining prognoz ko'rsatkichlari aniqligini ta'minlashning nazariy-metodologik va uslubiy apparatni takomillashtirish, ulardan mazkur mavzu doirasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini yanada chuqurlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan tavsiyalardan kelib chiqib, byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning metodologik masalalari bo'yicha ilmiy-amaliy hamda uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqishda, normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilishning metodologik masalalari bo'yicha tadqiqot natijalari asosida:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish metodologiyasi soliq to'lovchining o'zidan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishning ichki axborot manbalari bilan bir qatorda statistika organlari, investitsiya dasturlari, litsenziya beruvchi tashkilotlar va jamoatchilik nazorati tomonidan olinadigan tashqi axborot manbalari va omillarni sintezlash asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan "Ichki va tashqi" manbalar va omillarni sintezlash asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish metodologiyasi" soliq amaliyotida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54356-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish aniqligini ta'minladi, prognoz qilish jarayonida ichki va tashqi manbalar va omillardan samarali foydalanish imkoni yaratilgan;

ko'chmas mulkni soliqqa tortishda soliq bazasining kengayishi va hisob-kitoblar aniqligini ta'minlovchi soliq ma'muriyatchiligi metodologiyasi "Ko'chmas mulklarni bozor qiymati asosida baholash orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish tartibi"ni ishlab chiqish asosida takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan soliq amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54356-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ko'chmas mulkni soliqqa tortishda soliq bazasini kengayishi va aniq hisob-kitoblar mexanizmi asosida soliq ma'muriyatchiligi metodologiyasini takomillashuviga olib kelib, jismoniy shaxslardan olinadigan yer va mol-mulk solig'ini prognoz qilishning natijadorligi ta'minlangan;

jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda soliq turlari bo'yicha soliq xavfini baholash metodologiyasi soliqlarni prognoz qilish va byudjet jarayonida yuzaga keladigan soliq xavfini baholash modeli, mahalliy byudjetning moliyaviy xavfini aniqlash uslubiyati, byudjet daromadlarining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash asosida prognoz ko'rsatkichlari tasdiqlangandan keyin soliq tushumlarining bir maromda byudjetga tushishi bilan bog'liq xavflarni aniq baholashni amaliyotga joriy qilish to'g'risidagi taklifi O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan soliq amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54356-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida metodologiyadan amaliyotda foydalanish jismoniy shaxslardan olinadigan

solliqlarni prognoz qilish jarayonida soliq xavflarini to'g'ri va obyektiv baholash imkoniyatini bergan va prognozning natijadorligini oshirishga xizmat qilgan;

hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, tuman yoki shaharlarda faoliyat yuritadigan yakka tartibdagi tadbirkorlarga viloyatdagi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan eng yuqori stavkalarni qo'llash vakolatini berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi PF-132-son "Tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54356-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman va shaharlarni ularning sharoiti, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo'yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko'magini berish tartibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish ko'zda tutilgan;

shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga ommaviy dam olishga yoki turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo'yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etish vakolatini berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrda PF-223-son "Hududlarda yuqori iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlashning yangi tizimini yo'lga qo'yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 7-maydagi №27/2-54356-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga soliq solish maqsadida qo'llanadigan ko'chmas mulk ijara qiymatining 1 metr kvadrat uchun o'rnatilgan minimal miqdorlariga nisbatan tuman (shahar)lar kesimida 2 barobargacha oshiruvchi koeffitsiyent belgilash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 11 ta ilmiy maqola, shundan 2 ta xorijiy 9 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 259 betni tashkil yetadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning ilmiy jihatdan respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti,

ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari aksettirilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishning nazariy hamda uslubiy asoslari yoritilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish, soliq salohiyatini oshirish, solikli daromad manbalarining tasniflanishi bayon qilingan. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishning aniqlashga ta'sir etuvchi omillar guruhlari guruhlashtirilgan. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda mahalliy byudjetlarning daromadlari hamda xarajatlari tasniflangan va tavsiflangan.

Prognoz so'zi aslida grekcha so'zdan ya'ni, «πρόγνωση» «oldindan ko'rish, oldindan aytish» degan ma'noni bildiradi va obyektning kelgusidagi ehtimoliy holatini ilmiy jihatdan izohlashni anglatadi. Prognoz shu jihatdan olganda ilmiylikka asoslanadiki, har qaysi olingan obyektning kelgusidagi holatini oldindan aniqlash uchun o'rganilayotgan obyektning ichki mohiyati, uning o'tmishi, uning amal qilish tendensiyalari, unga mavjudligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganishni taqozo etadiki, ularni o'z o'zidan ilmiy yondoshmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Tadqiqot ishimizdagi mavzuga doir xorijiy va mahaliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Jumladan, T.Naydenova hamda I.Shvetsovalar tomonidan prognozlashga quyidagicha ta'rif berilgan: “Prognozlash – kelajakning ilgari borayotgan tasviri bo'lib, o'tmishdagi holatlarni tahlil qilish asosida ma'lum bir obyekt yoki hodisaning dinamikasini va tendensiyalarini aniqlashga qaratilgan bilimga asoslangan faoliyat turidir”. Prognoz obyektning ehtimoliy holati to'g'risida taxminiy fikr hisoblanadi» deb ta'kidlasa⁵, A.Kokin va A.Yedronovlar fikricha, «Prognozlash – soliqni rejalashtirishning dastlabki sharti bo'lib, unda asosan soliq tushumlarini boshqarishning taktik vazifalari hal etiladi»⁶. S.Anisimov hamda V.Ostapenkolar «Soliqlarni prognozashtirish bu - mamlakat va hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishga asoslangan holda soliqlarni byudjetga jalb qilish jarayoni maqsadida, soliqlar bazasini aniqlash, soliqlar va to'lovlarni tahlil qilish, soliqlarning yig'iluvchanlik darajasi, soliq qarzdorlikni baholash hamda soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni monitoring qilish munosabatlaridir» deb ta'riflaydi⁷.

Mahaliy olimlarimizdan, i.f.d.. prof. S.Xudoyqulov tomonidan soliqlarni prognoz qilishga ta'rif berib, «Soliqlarni prognoz qilish deganda - soliq

⁵ Найденова Т.А., Швецова И.Н. Прогнозирование и планирование налоговых доходов местного бюджета (на материалах МО ГО «Сыктывкар»). Журнал. Актуальные Проблемы Гуманитарных И Естественных Наук. Издательство: Научно-информационный издательский центр и редакция журнала "Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук" (Москва). 2014. с. 187-197.


⁶ Кокин А.С., Едронов А.В. Применение корреляционно-регрессионного анализа в прогнозировании налоговых поступлений в бюджет субъекта федерации. Вестник Нижегородского университета им. Н.И. Лобачевского, 2010, № 2 (1), с. 233–241.

⁷ Анисимов С.А, Остапенко В.В. Проблемы прогнозирования налоговых доходов // Журнал «Аудит и финансовый анализ». №1, 2003. с. 82-83.

to'lovchilarning yuzaga kelishi, milliy iqtisodiyot, hudud, tarmoqlar va alohida olingan soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini baholash, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning byudjetga kelib tushishining prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash asosida byudjetni rejalashtirishga oid muhim natijaviy axborotlarni taqdim qilish hamda byudjetni rejalashtirish va soliqlarni prognozlash natijalarini bog'liqligini ta'minlashdek, o'zaro bog'liq va ketma-ketlikka asoslangan jarayonlar tushuniladi»⁸ deb ta'kidladi. Bundan tashqari, i.f.d.. prof. S.Shirinov soliqlarni prognoz qilish jarayonini soliqlarni rejalashtirish bilan o'zaro bog'liqligiga alohida e'tibor bergan va ularning bu bog'liqligini ham makro ham mikro darajada amal qiladi deb ta'rif bergan⁹.

Tadqiqot natijasida ilmiy tahlillarga asoslangan holda jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tushumlarini prognoz qilishga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar prognozi – turli darajadagi byudjet daromadlarini rejalashtirish maqsadida tegishli model va metodlarni qo'llab, miqdoriy va sifat tahlillarini amalga oshirish asosida, jismoniy shaxslarga qonunchilik bilan yuklatilgan soliq majburiyatlari doirasida kelib tushishi mumkin bo'lgan tushumlarning prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir"¹⁰.

Shu o'rinda, ba'zi iqtisodchi olimlar soliqlarni prognoz qilish jarayonini soliqlarni rejalashtirish jarayoni bilan birgalikda tadqiq etadi, bu bizning fikrimizcha to'g'ri yondashuv, ammo ayrimlari soliqlarni rejalashtirishning mazmunini prognozlashtirish sifatida baholaydi.



1-rasm. Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilish metodlarni qo'llash xususiyati¹¹.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar prognozi bu byudjetni rejalashtirishni ta'minlashi lozim, ushbu jarayonda esa model va metodlardan

⁸ Xudoyqulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 15 b..

⁹ Shirinov S.E. Davlat byudjetining solikli daromadlarini prognoz qilish uslubiyatini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2024-yil.

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

foydalanish uslubiy zarurat, prognoz ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi turli omillar ham miqdoriy ham sifat ko'rsatkichlari jihatdan tahlil qilinishi lozim va jarayonda tizimli yondashuv asosiy shartlardan sanaladi, ana shundagina obyektivlik darajasi yuqori bo'lgan prognoz ko'rsatkichlariga ega bo'lish mumkin. Sxematik ravishda jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilish metodlarni tasniflanishi 1-rasmda ko'rsatilganidek aks ettirish mumkin.

Prognoz qilishning ilg'or metodlari prognozda prognoz qilish obyektining rivojlanish qonuniyatlari yangi tendensiyalarini aks ettirish xususiyatini amalga oshiradigan ilmiy-texnik axborotni maxsus qayta ishlash tamoyillariga asoslanadi. Prognoz qilishning rasmiy metodlari prognozlar aniqligi va ishonchligini oshirish, ularni bajarish muddatini sezilarli qisqartirish, axborotni qayta ishlash va natijalarni baholash imkonini beradigan matematik nazariya vositalari tuzishga asoslanadi.

Tadqiqot ishida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i prognozi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasi va ayrim xorijiy davlatlar misolida taqqosiy tahlili amalga oshirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

JShDS prognozi uchun asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash (2024–2025-yillar)¹²

Ko'rsatkich	O'zbekiston Respublikasi (2025 prognoz)	AQSH	Germaniya	Janubiy Koreya	Shvetsiya
Ish bilan band aholining soliq to'lovchi qamrovi	~73%	~90%	~95%	~92%	~98%
O'rtacha yillik daromad (USD ekv.)	~\$4,800	~\$55,000	~\$52,000	~\$45,000	~\$60,000
JSHDS stavkasi (o'rtacha)	12%	~22%	~30%	~16%	~32%
Norasmiy bandlik ulushi	~27%	<5%	<3%	~10%	<1%
Raqamlashtirish darajasi	~70%	>95%	>95%	~90%	>98%
Soliq tushumlari YaIMga nisbatan (JSHDS ulushi)	~3.2%	~8%	~9.5%	~7.2%	~12%

O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (JSHODS) tushumlari yalpi ichki mahsulotga (YAIM) nisbatan 3,2% ni tashkil etib, bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 7–12% atrofida bo'ladi. Ish bilan band aholining soliq to'lovchi sifatida qamrovi O'zbekistonda 73% ni tashkil qilsa, AQSH, Germaniya, Janubiy Koreya va Shvetsiya kabi rivojlangan davlatlarda ushbu ko'rsatkich 90–98% darajasida. O'zbekistonda aholining o'rtacha yillik daromadi taxminan 4,800 AQSH dollarini tashkil etsa, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich 50,000–60,000 dollar atrofida. JSHODS stavkasi

¹² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda 12% bo'lib, boshqa davlatlarda 16% dan 32% gacha yetadi va ularda, asosan, progressiv soliq stavka tizimi qo'llaniladi. Shu bilan birga, O'zbekistonda norasmiy bandlik ulushi 27% ni tashkil etmoqda, rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 1–10% chegarasida. Soliq ma'muriyati samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan biri bo'lgan raqamlashtirish darajasi O'zbekistonda taxminan 70% bo'lsa, rivojlangan mamlakatlarda u 95% va undan yuqori darajada qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkichlar tahlili O'zbekistonda JSHODS tizimini tubdan takomillashtirish, soliq qamrovini kengaytirish, norasmiy bandlikni qisqartirish va raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Hozirgi kunda, jismoniy shaxslardan olinadigan soliq tushumlarini prognoz qilish jarayoni sezilarli vaqt davomida rivojlanib, ularga turli xil ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli turli mamlakatlardagi soliq tizimlari nafaqat soliq turlari va tarkibi, stavkalari, yig'ish usullari, balki hokimiyatning soliq-byudjet vakolatlari va taqdim etilayotgan imtiyozlari bilan ham farqlash mumkin. Shuningdek, har xil turdagi mulklar, xususan, ko'chmas mulkni (shu jumladan turar joy binolar, inshootlar va imoratlar, qurilgan va qurilmagan yerlarni) soliqqa tortish uchun ham qo'llaniladi.

Shunday qilib, jismoniy shaxslar daromadidan soliq undirilishining zarurligi ijtimoiy manfaatlar ustunligida namoyon bo'lmoqda. Buning ma'nosi shuki, daromad solig'idan foydalanish, aholining nominal pul va real daromadlari darajasini muayyan tarzda tartibga solish zarurligi bilan bog'liqdir.

Dissertatsiyaning **“Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni amaldagi holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishning asosiy ko'rsatkichlari, uni belgilovchi omillar, hududlar kesimida soliq salohiyatini baholash usullari va ularning amaldagi holati hamda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda baholash modellari tahlili keltirilgan.

Soliq tushumlarini prognoz qilishning eng muhim talab etiladigan bosqichlaridan biri tahliliy bosqichdir. Soliq tushumlarini tahlil qilish prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashda oraliq taktika sanaladi. Tahlil ishlarini amalga oshirmasdan turib har qaysi model va metodlar yetarlicha samara bermaydi. Bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish tahlili quyidagi muhim bosqichlar: turli darajadagi byudjetlarga tegishli soliq tushumlari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining bajarilishi darajasi yillar, hududlar, tarmoqlar kesimidagi tahlili, soliq prognozi ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillarni guruhlash asosida ularning ta'sirini baholash, soliq ko'rsatkichlari-soliqlarning yig'iluvchanligi, soliq yuki, soliq egiluvchanligi hamda soliqlarning makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liqlik holatini tahlil qilish, soliq tushumlarini turli xil tahlil qilish metodlari, jumladan, ekonometrik tahlilini amalga oshirishning ketma-ketlik bosqichlari va ularning dialektik tizimidan iborat bo'lishi lozim.

Mamlakatni rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan asosiy ko'rsatmalar hamda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining maqsadlari, bundan tashqari, hozirgi davrda, zamonaviy soliq tizimi, byudjet tizimi bo'yicha mutlaqo yangi siyosatni ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan asosiy

muammolar, ularni bu boradagi yechimlarini topish, uni bartaraf etish yo‘llarini topishda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda indikatorlarni ishlab chiqish kerak deb hisoblaymiz (2-jadvalga qarang).

Amalga oshirilgan ishlardan tahliliy xulosalar chiqaradigan bo‘lsa, bir qator tendensiyalarni kuzatish mumkin. Birinchidan, respublikamizda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda tahlilning muhim sharti xolislik va obyektivlikka asoslanish prognoz ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir etadi. Ikkinchidan, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda amalga oshirgan tahlillarimiz respublikamizda mazkur soliqlar bo‘yicha soliq tushumlari, soliq to‘lovchilar soni, ularga berilgan soliq imtiyozlari, soliq qarzdorligining holati dinamik tarzda oshib borayotganligini kuzatish mumkin.

Quyidagi 2-jadvalga muvofiq shuni ta’kidlash mumkinki, ya’ni soliq tushumlari va soliq to‘lovchilar soni oshib borishi prognoz ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir qilsa-da, ammo, soliq qarzdorligi va soliq imtiyozlarining ta’siri birinchisi bo‘yicha salbiy va keyingisi bo‘yicha esa ehtimoliydir. Soliq tushumlariga ta’sir etuvchi omillar bo‘lib, ish haqi, band bo‘lgan aholini soni, mol-mulk va yer uchastkalari soni oshishi ijobiy tendensiya hisoblanadi, lekin hududlar kesimida, bu ko‘rsatkichlarda beqarorlik mavjud, bu esa mahalliy byudjetlar doirasida prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlashda qiyinchiliklar tug‘diradi.

2-jadval

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda soliq imtiyozlaridan foydalanish ko‘rsatkich(indikator)lari¹³

Ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichni hisoblash	Xususiyatlari
Imtiyozli soliq stavkasi($I_{s.s}$)	$I_{s.s} = ST / \sum S$, bu yerda ST – soliq tejash; $\sum S$ -imtiyozlarni hisobga olmagan holda olingan soliqlar	Soliq tejash sifatida tejamkorlik darajasi ko‘rib chiqiladi, ya’ni imtiyozlardan foydalanish natijasida olingan soliqlar.
Imtiyozli soliqqa tortish samaradorligi koeffitsiyenti($I_{s.t.s.k}$)	$I_{s.s} = ST / D$, bu yerda, D – daromad	Hududdagi daromadlarning umumiy hajmiga nisbatan imtiyozlardan foydalanish natijasida soliq tejash darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkich.
Imtiyozli investitsiya koeffitsiyenti($I_{i.k}$)	$I_{s.s} = ST / I$, bu yerda, I – investitsiya	Imtiyozlar qo‘llaniladigan investitsiyalarga nisbatan imtiyozlardan foydalanish natijasida soliq tejashning nisbiy ko‘rsatkichi

Hududda jismoniy shaxslardan undirib olinadigan, mol-mulk, yer solig‘ini undirishda, fuqarolarni soni ko‘p bo‘lsada, undirilayotgan soliq hajmining kamligi

¹³ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

hamda mazkur soliqlarni undirishda qiyinchiliklarga duch kelinayotganini ko'rishimiz mumkin. Byudjet tizimining turli bo'g'inlari o'rtasida daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmining asosini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi assimetrik tafovut tashkil etadi. Shuning uchun mahalliy byudjetlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda, birinchi navbatda, hududlar iqtisodiy salohiyatini oshirish va undan samarali foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga tatbiq etish hisoblanadi. Yuridik hamda jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulk va yer soliqlarini ko'chmas mulk (bino, inshoot va yer uchastkalari) obyektlarining bozor bahosiga yaqin bo'lgan kadastr qiymati asosida hisoblash tizimini bosqichma-bosqich joriy etishni 3-jadvalda tahlili keltirib o'tilgan.

3-jadval

Toshkent shahri tumanlari bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini 2025-yilda to'lanadigan soliq summasi ko'rsatkichlari¹⁴

Tuman	2024-yil qiymati (mln. so'm)	2025-yil maksimal (mln. so'm)
Mirobod tumani	22 316,4	29 011,3
Mirzo Ulug'bek tumani	1 407 795,8	1 830 134,5
Yunusobod tumani	2 672 834,1	3 474 684,3
Yakkasaroy tumani	1 196 748,6	1 555 773,2
Shayhontohur tumani	410 581,7	533 756,2
Chilonzor tumani	492 087,2	639 713,4
Sergeli tumani	837 789,4	1 089 126,2
Yashnobod tumani	551 224,8	716 592,2
Olmazor tumani	2 604 842,5	3 386 295,2
Uchtepa tumani	2 037 125,6	2 648 263,3
Bektemir tumani	2 850 644,4	3 705 837,7
Yangiheyot tumani	4 705 683,4	6 117 388,4
Jami	19 789 673,8	25 726 575,9

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga asosan jismoniy shaxslarni mol-mulk va yer soliqlarini 2025-yilda to'lanadigan soliq summasi 2024-yilda hisoblangan summadan ya'ni 1,3 baravaridan oshmagan miqdorda hisoblab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra 2024-yilga nisbatan 5 936 902,1 mln so'mni tashkil qilmoqda.

Tadqiqot natijasida jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig'i va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i (noturar ko'chmas mulk obyektlari bundan mustasno) bo'yicha birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlar ishlab chiqildi (4-jadvalga qarang). Iqtisodiy hamda ijtimoiy sohalarida, tashqi iqtisodiy munosabatlarda yuzaga keladigan barcha jarayonlar orqali O'zbekiston Respublikasining soliq tizimiga ta'sir

¹⁴ Ilmiy tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Soliq Qo'mitasi ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

etadigan omillar, barcha makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, mamlakat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni tahlil etish orqali baholash mumkin.

4-jadval

Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilarning 2025-2027-yillar uchun byudjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikator¹⁵

Yo'nalish	Indikator nomi	O'lchov birligi	2025-yil	2026-yil	2027-yil
Soliq ma'murchiligi	Deklaratsiya asosida to'plangan mol-mulk solig'i ulushi	%	≥ 90	≥ 92	≥ 95
Soliq bazasini kengaytirish	Yangi soliq to'lovchilar (mol-mulk/yer) sonining o'sishi	%	+5	+6	+7
Yig'im samaradorligi	Mahalliy darajada undirilgan yer solig'i hajmi	mlrd so'm	≥ 1 500	≥ 1 700	≥ 1 900
Axborot texnologiyalari	Soliq to'lovchilarning onlayn to'lov tizimidan foydalanish darajasi	%	≥ 60	≥ 75	≥ 85
Budjetga tushumlar	Jismoniy shaxslardan tushgan mol-mulk va yer solig'i tushumlari	mlrd so'm	≥ 3 500	≥ 4 000	≥ 4 500
Foydalanish samaradorligi	Soliq tushumlari evaziga moliyalashtirilgan infratuzilma loyihalari soni	dona	≥ 30	≥ 40	≥ 50
Ijtimoiy samaradorlik	Mol-mulk solig'i hisobiga ijtimoiy loyihalar (ta'lim, tibbiyot)ga yo'naltirilgan mablag'	mlrd so'm	≥ 500	≥ 650	≥ 800
Hisobot shaffofligi	Byudjet xarajatlarining ochiqligi va monitoring hisobotlari soni	dona	4 (har chorakda)	4	4

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga muvofiq indikatorlar, monitoring va baholash tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Soliq tushumlari nafaqat yig'im, balki xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun ishlatiladi. Innovatsion yondashuv esa soliq to'lovchilarning ishonchini oshirish hamda elektron xizmatlarni kengaytirish orqali amalga oshiriladi.

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalarini indeksatsiya qilish asosida yer uchastkasidan foydalanuvchilar, davlat yoki mahalliy hokimiyat organlaridan ijaraga olingan yerlar uchun ijara shartnomasida belgilangan tartibda soliq to'laydi. Tadqiqot ishimizda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun ijara to'lovining eng kam stavkalarini qo'llash doirasida 2025-2027-yillar kesimida ko'rib chiqqanmiz (5-jadvalga qarang). Bu jadvalda asosiy obyekt turlari, 2024-yil stavkalari va har yili indeksatsiyadan keyingi prognoz stavkalar (masalan: 12% yillik indeksatsiya) ko'rsatiladi.

¹⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

5-jadval

Toshkent shahrida mol-mulk obyektlari bo'yicha ijara to'lovining eng kam stavkalarini 2025–2027-yillar uchun koeffitsient qo'llangan holda indeksatsiya qilishning prognoz qiymatlari (so'mda/m²/oyiga)¹⁶

Ob'yekt turi	2025-yil	2026-yil (~12%)	2027-yil (~12%)	2028-yil (~12%)
Hunarmand	49 500- 67 500	55 500- 75 600	63 000- 84 700	70 600- 94 800
Savdo faoliyati	81 000- 90 000	91 000- 101 000	102 000- 113 000	115000- 126600
Ishlab chiqarish	49 500- 67 500	55 500- 75 600	63 000- 84 700	70 600- 94 800
Umumiy ovqatlanish	63 000- 90 000	70 600- 101 000	79 200- 113 000	88 700- 126 600
Turar joy (ijara uchun beriladigan)	50 400- 56000	56 500- 62 800	63 300- 70 400	71000- 79 000
Noturar boshqa obyektlar	63 000- 90 000	70 600- 101 000	79 200- 113 000	88 700- 126 600

Yuqoridagi jadvalga muvofiq har yili 12%ga indeksatsiya (inflyatsiya va bozor stavkalari asosida) keltirilgan bo'lib, bu stavkalar eng kam stavkalar asosida real shartnomalar bo'yicha bozordagi narxlarga asosan yuqori hisoblab chiqilgan. Jismoniy va yuridik shaxslar uchun bir xil boshlang'ich baza qo'llanilgan, lekin soliq stavkasi farqlanishi mumkin.

Bundan tashqari, nodavlat maktabgacha ta'lim va umumta'lim, professional hamda oliy ta'lim xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i imtiyozidan foydalanish orqali 2027-yil 1-yanvarga qadar jismoniy shaxs tomonidan topshirilgan deklaratsiyadagi daromad miqdori bitimlarni rad etish uchun asos bo'lmasligi belgilab olindi. Dissertatsiya ishimizda 2025-yil 1-iyuldan boshlab ayrim holatlarda deklaratsiyani soliq organlariga taqdim etish talabi bo'yicha tartib hujjati shaklini keltirib o'tamiz (6-jadvalga qarang). Ushbu tartib, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga va yangi joriy qilinayotgan tartibga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

Quyidagi 6-jadvaldagi ma'lumotlarga asosan deklaratsiya topshirish muddati har yili 1-aprelga qadar taqdim etilishi lozim bo'lib, 2025-yil uchun esa bir martalik holatda 1-iyuldan keyin 2025-yil 31-dekabrga qadar uzaytirilgan muddat bo'yicha belgilanadi.

¹⁶ Jadval muallif tomonidan Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining 2024-yil 26-dekabrdagi VII-4-024-14-0-K/24 -son qarori va soliq.uz ma'lumotlari asosida tuzilgan.

6-jadval

O‘zbekiston Respublikasida (2025-yil 1-iyuldan boshlab) quyidagi holatlarda jismoniy shaxslar daromadlar to‘g‘risidagi soliq deklaratsiyasini taqdim etish tartiblari¹⁷

Holat tavsifi	Izohlar
Yiliga 100 million so‘mdan ortiq daromad olgan shaxslar	Shu jumladan, ijara, xizmat ko‘rsatish, erkin kasblar (freelance)
Chet eldan daromad olgan shaxslar (masofaviy ishlovchilar, xizmat eksporti)	Bank hisobvaraqlari orqali olingan tushumlar asosida aniqlanadi
Mulk sotishdan tushgan daromad (ko‘chmas mulk)	Sotuv narxi va xarid narxi o‘rtasidagi farqdan foyda olinadi
Notijorat faoliyat orqali daromad olganlar (donorlik, grantlar, subsidiyalar)	Faqatgina soliqqa tortiladigan daromadlar bo‘yicha
Ijara faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxslar	Turar va noturar joylarni ijaraga berish
Mustaqil mehnat faoliyati (masalan: taksi xizmati, ustachilik, tikuvchilik)	Patent yoki guvohnoma asosida bo‘lmagan holda ishlayotganlar
Chet elda ishlayotgan fuqarolar (valyuta tushumlari bilan)	Agar daromad soliq solinmaydigan davlatlardan tushgan bo‘lsa

Tadqiqot ishimizda hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni qisqartirish, tuman/shaharlarni sharoitidan, salohiyati va imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish bo‘yicha yangicha yondashuvlarni joriy etish, shuningdek, tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash, davlat ko‘magini berish tartibini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish maqsadida tuman/shahar darajasida iqtisodiy rivojlanishdan kelib chiqib YaTTlarga eng yuqori soliq stavkalarini belgilash vakolatini berish tartibi ishlab chiqildi (7-jadvalga qarang). Mazkur tartib tuman yoki shaharlarda iqtisodiy faoliyatning faolligi, daromadlilik darajasi hamda byudjet daromadlarini ta‘minlash ehtiyojidan kelib chiqib, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soliq stavkalarini hududlar kesimida differensiasiya qilishni tartibga soladi.

Quyidagi jadval ma‘lumotlariga ko‘ra kutilayotgan samaralar: mahalliy byudjetlar daromadlarining oshishi; soliq yuki adolatli taqsimlanishi; rivojlangan tumanlarda norasmiy faoliyatni legallashtirish imkonini yaratadi. Monitoring hamda nazorat yuzasidan esa har yili viloyat moliya boshqarmasi tomonidan tuman/shaharlar kesimida iqtisodiy baholash o‘tkaziladi; soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida baholash indeksleri shakllantiriladi.

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

7-Jadval

**Tuman yoki shaharlarda iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib
YaTTlarga (yakka tartibdagi tadbirkorlarga) viloyatdagi eng yuqori
stavkalarni qo'llash vakolatini berish tartibi¹⁸**

Band mazmuni
Tuman (shahar) kengashi qarori asosida, viloyatdagi YaTTlar uchun belgilangan eng yuqori stavkalarni shu hududdagi YaTTlarga nisbatan qo'llash huquqi beriladi.
Bunday qaror iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori, savdo, xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish faoliyati markazlashgan tuman/shaharlar uchun qabul qilinadi.
Baholash mezonlari: aholi soni, YaIM tarkibidagi ulushi, savdo aylanmasi, ijara narxlari, tadbirkorlik darajasi.
Soliq stavkasi faqat belgilangan doiradagi faoliyat turlari uchun qo'llanishi mumkin (masalan: umumiy ovqatlanish, savdo, ko'ngilochar xizmatlar).
Qaror kuchga kirgandan so'ng, YaTTlar 30 kun ichida ogohlantiriladi va yangi stavka bilan hisobot topshirish majburiyati tug'iladi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasidan kelib chiqib, YaTTlar uchun viloyatdagi eng yuqori stavkalarni qo'llash vakolatini berish tartibi bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar asosida tuzilgan tahliliy jadvalni ko'rib chiqamiz (8-jadvalga qarang). Bu jadval mahalliy hokimiyatlarga qaror qabul qilishda asos bo'ladigan mezon va indikatorlar tizimini ifodalaydi.

8-jadval

**YaTTlar uchun eng yuqori stavkalarni qo'llash mezonlari
bo'yicha baholash¹⁹**

Hudud (tuman/shahar)	Aholi soni (ming)	Savdo aylanmasi (mlrd so'm)	YaTT soni (dona)	Ishsizlik darajasi (%)	Xizmatlar sektori ulushi (%)	Rivojlanish darajasi indeksi*	Tavsiya etiladigan stavka (vil. max %)
Shayxontohur t. (Toshkent)	375	5 420	12 340	4,2	72,5	0.93	✓ Qo'llash tavsiya etiladi
Bektemir t. (Toshkent)	90	1 220	1 550	6,1	58,0	0.65	✗ Qo'llash tavsiya etilmaydi
Samarqand sh.	530	6 870	15 780	4,8	68,4	0.89	✓ Qo'llash tavsiya etiladi
Andijon sh.	420	4 300	10 120	5,2	65,1	0.78	△ Qarab chiqish zarur
Yakkabog' t. (Qashqadaryo)	210	870	3 850	8,0	43,2	0.52	✗ Qo'llash tavsiya etilmaydi
Navoiy sh.	250	2 960	7 430	4,5	60,3	0.80	✓ Qo'llash tavsiya etiladi

¹⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi 8-jadval ma'lumotlariga asosan rivojlanish darajasi indeksi: 0 dan 1 gacha bo'lgan ko'rsatkichlar keltirilgan, yuqoriroq qiymat bo'lib rivojlangan tuman/shahar olingan. Tavsiya etiladigan stavka: viloyat bo'yicha belgilangan YaTT uchun eng yuqori stavkani qo'llash huquqi bo'yicha tavsiya etiladi.

Hududlarning soliq pasportlari ko'rsatkichlarining tuzilishi va tarkibini takomillashtirish, soliq sohasidagi tendensiyalar to'g'risida tahliliy ma'lumotlarni rejalashtirish uchun yanada to'liq foydalanish, soliq tushumlarini rejalashtirish jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish, turli xil rejalashtirish usullariga asoslangan ko'p o'zgaruvchan hisob-kitoblardan foydalanildi.

Dissertatsiyaning **“Jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilish mexanizmlarini obyektivligini ta'minlash”** deb nomlangan uchinchi bobida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishning ekonometrik tahlili o'tkazilgan va prognozlar qilingan, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish jarayonini takomillashtirish yo'nalishlari yoritib berilgan.

Mamlakatimizda makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hamda qulay investitsion muhitni muntazam ravishda shakllantirib borish orqali yangi korxonalar, ishlab chiqarish tarmoqlari, xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi, aholi bandligini ta'minlash, ularning daromadlari va farovonligini oshirish, yangi texnologiyalar, ilg'or boshqaruv tizimlari joriy etilishi natijasida milliy mahsulot, xizmatlarning ichki va tashqi bozorlardagi raqobatdoshligini oshirish hamda mamlakatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishimizda hududlar bo'yicha soliq bazasini shakllantirish strategiyasi (bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan) ishlab chiqilgan (9-jadvalga qarang).

9-jadval

Hududlar bo'yicha soliq bazasini shakllantirish strategiyasi (bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan)²⁰

Yo'nalish	Strategik harakat	Kutilayotgan natija
Raqobatbardosh muhit yaratish	Soliq imtiyozlarini raqobat asosida differensiallash	Investitsiyalar oqimi ortadi, yangi soliqqa tortiladigan sub'yektlar paydo bo'ladi
Norasmiy sektorni legallashtirish	Engillashtirilgan ro'yxatdan o'tish, soliq inkassasiyasi	Soliq bazasi kengayadi
Hududiy biznes klasterlar rivoji	Hududlar iqtisodiy ixtisoslashuvi asosida qo'llab-quvvatlash	Barqaror va maqsadli soliq tushumlari shakllanadi
Raqamlashtirish va monitoring	Elektron hisobvaraq-fakturalar, onlayn kassalar	Soliq to'lovchilar qamrovi kengayadi
Ish haqi oshishini rag'batlantirish	Xususiy sektorni mehnatga rag'batlantirish	Jismoniy shaxslar solig'i bazasi ortadi
Soliq siyosatining hududiy moslashuvi	Differensial stavkalar, soliqqa tortish mezonlari	Mahalliy sharoitlarga mos soliq mexanizmlari

²⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlariga asosan hududlar bo'yicha soliq bazasini shakllantirish strategiyasini bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan holda ishlab chiqish, mahalliy daromad manbalarini kengaytirish, soliqqa tortish imkoniyatlarini chuqurlashtirish va fiskal barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Ushbu strategiyaga asosan muhim jihatlarini keltirib o'tamiz: Birinchidan, bozor mexanizmlarini inobatga olgan holda hududlarda iqtisodiy faollikni rag'batlantirish orqali soliq bazasini tabiiy kengaytirish mumkin. Ikkinchidan, norasmiy sektorni legallashtirish, yangi tadbirkorlik sub'yektlarini jalb qilish va raqamlashtirilgan nazorat mexanizmlari yordamida yashirin iqtisodiy faoliyat ochiqilanadi, bu esa soliqqa tortiladigan obyektlar sonini oshiradi. Uchinchidan, hududlar iqtisodiy ixtisoslashuviga mos soliq yondashuvlarini joriy etish, ya'ni differensial soliq siyosati, mahalliy byudjet daromadlarini barqarorlashtirish imkonini beradi. To'rtinchidan, raqobatbardosh muhitni shakllantirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash orqali real sektorda daromadlar ortadi, natijada jismoniy va yuridik shaxslardan tushadigan soliq tushumlari ko'payadi. Beshinchidan esa investitsiyaviy iqlimni yaxshilash orqali yangi soliqqa tortiladigan obyektlar paydo bo'ladi va soliqqa tortish bazasi kengayadi. Umuman olganda, bozor iqtisodiyoti asosida shakllangan hududiy soliq strategiyasi nafaqat soliq tushumlarini oshiradi, balki iqtisodiy o'sish, bandlik va hududlararo ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida aynan aholi o'rtasidagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan yoki umuman ishlamayotgan, mehnatga jalb etilmagan mutlaqo ishsiz bo'lgan fuqarolar inobatga olinmay qolmoqda. Ushbu holatlarni ham inobatga olish kerakligi juda ham zarur. Negaki, ayni vaqtda yurtimizda ishsizlik soni ortib borayotganligi, temir daftar va ayollar daftari yuritilganligi oqibatida fuqarolarimizni ayrimlari boqimandalik darajasiga kelayotganligi oqibatida soliq salohiyatini oshirish ko'rsatkichlariga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida biz tomondan taklif etilayotgan, ya'ni 2025-yil 1-yanvardan 2028-yil 1-yanvarga qadar ishga qabul qilingan kambag'al oilalar a'zolariga, ishga qabul qilingandan boshlab beriladigan oylik ish haqlaridan undiriladigan soliqlariga imtiyozlar taqdim etilishi (10-jadvalga qarang), jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i bo'yicha korrelyatsion-regression tahlil amalga oshirilib, ekonometrik model yordamida prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Bu esa, albatta moliyaviy holatlarni oshirishda, soliq tushumlarini yaxshilashda hamda iqtisodiyotimizni yanada rivojlanishida yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasida kam ta’minlangan fuqarolari uchun taqdim etilgan soliq imtiyozlari va belgilangan tartiblar (2024–2040-yillar)²¹

Imtiyoz turi	Amal qilish muddati	Imtiyoz sharti	Soliq stavkasi / Imtiyoz turi
Ishga qabul qilingan kambag‘al oilalar a‘zolari uchun ijtimoiy soliq imtiyozi	2025-01-01 – 2028-01-01	Ish haqi kamida 1,7 mln so‘m bo‘lsa	Ijtimoiy soliq – 1%
O‘quvchilar uchun soliq imtiyozi	2024-09-01 – 2027-09-01	Maktab, kollej, texnikum o‘quvchilari	Daromad solig‘i va ijtimoiy soliq – 1%
Yoshlar uchun ko‘chma savdoda soliqlardan ozod etish	2028-01-01 gacha	30 yoshgacha bo‘lganlar, magistral yo‘llarda ko‘chma savdo tashkil qilganlar	Dastlabki 6 oyda barcha soliqlardan ozod
Nashriyot-matbaa sohasi foyda solig‘i imtiyozi	2025-01-01 – 2029-01-01	Daromadining 90% nashriyot-matbaa faoliyatidan bo‘lishi	Foyda solig‘i – 0% (foizlar tarzidagi daromadlardan mustasno)
IT-park rezidentlariga soliqlar bo‘yicha imtiyoz	Amal muddati uzaytirildi: 2040-01-01 gacha	QQS va JSHDS tashqari	Barcha boshqa soliqlardan ozod etish

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga asosan mehnat bozorini rag‘batlantirish orqali kam ta’minlangan fuqarolarni ish bilan ta’minlovchi korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasining 1% etib belgilanishi ularni yollashni iqtisodiy jihatdan foyda beradi, bu esa bandlik darajasining oshishiga, ijtimoiy tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi. Tahsil olayotgan o‘quvchi yoshlar uchun 1% soliq stavkasi qo‘llash ularning ishga jalb etilishini rag‘batlantiradi, 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlarning tadbirkorlikka kirib kelishini qo‘llab-quvvatlovchi 6 oylik soliqlardan ozodlik ularga “start up” imkoniyatlarini taqdim etadi. Matbaa sohasini rivojlantirishda esa daromadining 90%ini nashriyot va matbaa faoliyatidan topayotgan subyektlar foyda solig‘idan ozod qilinadi, buning natijasida esa ma’naviy-ma’rifiy sohaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. IT sohasini qo‘llab-quvvatlashda IT-park rezidentlariga 2040-yilgacha uzaytirilgan keng qamrovli soliq imtiyozlari berilishi oqibatida bu sohaning jadal rivojlanishini va eksport salohiyatini oshirishda yordam beradi.

Hududlarda jismoniy shaxslardan undirib olinadigan, mol-mulk, yer solig‘ini undirishda, fuqarolarni soni ko‘p bo‘lsada, undirilayotgan soliq hajmining kamligi hamda mazkur soliqlarni undirishda qiyinchiliklarga duch kelinayotganini ko‘rishimiz mumkin. Byudjet tizimining turli bo‘g‘inlari o‘rtasida daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmining asosini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi assimetrik tafovut tashkil etadi.

Biz tomondan, shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga ommaviy dam olishga

²¹ Jadval muallif tomonidan 24.12.2024 yildagi O‘RQ-1014-sonli O‘zbekiston Respublikasi Qonunidagi ma’lumotlari asosida tuzilgan

yoki turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo'yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etish vakolatini berish hamda YaTTlar uchun qat'iy belgilangan miqdordagi soliq stavkalariga 0,7 dan 1,3 gacha kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyentni qo'llash vakolatini bekor qilish taklif etilgan bo'lib, unga ko'ra Toshkent shahri, Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar, boshqa shaharlar va boshqa aholi punktlar kesimida faoliyat turiga qarab qo'llaniladi.

Hozirgi kuchli raqobatga asoslangan bozor munosabatlarida davlat byudjetiga soliq tushumlarini ta'minlovchi soliq to'lovchilar doimo raqobat muhitida faoliyat yuritadi, bu esa soliq tushumlarining belgilangan prognoz ko'rsatkichlari doirasida tushmay qolish riskini keltirib chiqaradi, soliq to'lovchi doimo tavakkalchilikka asoslanib faoliyat yuritarkan, jamiyatda turli xil ijtimoiy-iqtisodiy va texnogen hodisalardan kafolatlanmagan holatlar uchrab turadi, shu bois soliq riski ham doimiy mavjud bo'ladi. Shu bilan birga, soliq riskini boshqarish davlat moliya siyosatining muhim vazifalaridan biri bo'lib, bu yo'nalishda maxsus baholash usullari, monitoring tizimlari va profilaktik choralar qo'llanilishi zarur. Xususan, soliq tushumlari barqarorligini ta'minlash uchun risklarni minimallashtirishga qaratilgan prognozlash modellari, statistik tahlillar va tezkor javob mexanizmlari ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotimizda hududiy markazlarda ijara to'lovlari uchun oshib boruvchi koeffitsiyentni joriy etish orqali yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT) uchun soliq stavkalarini o'zgartirish vakolatini bekor qilish taklif etilgan (11-jadvalga qarang).

11-jadval

Toshkent shahri, Nukus shahri va viloyat markazlari bo'lgan shaharlar kesimida faoliyat turiga qarab kamaytiruvchi yoki oshiruvchi koeffitsiyentni qo'llash vakolatini bekor qilish bo'yicha asosiy ko'rsatkichlar²²

Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	Amaldagi holat	Taklif etilayotgan tartib	Izoh
Ijara to'lovining eng kam stavkasi	so'm/m ²	Hududlar bo'yicha yagona (masalan: 5 000 – 10 000)	Ommaviy dam olish yoki turizmga ixtisoslashgan hududlar uchun koeffitsiyentli oshirish (1,2–1,5x)	Buxoro, Samarqand, Toshkent sh. kabi hududlarda
Belgilanish tartibi	-	Respublika bo'yicha umumiy mezon	Mahalliy hokimliklarga stavkani oshirib boruvchi koeffitsiyentni joriy etish vakolati beriladi	Turizm salohiyatiga qarab farqlanadi
YaTTlar uchun qat'iy soliq stavkasi	so'm/yil	1 000 000 (misol)	O'zgartirish huquqini beruvchi koeffitsiyent 0,7–1,3 bekor qilinadi, yagona stavka joriy etiladi	Oddiylashtirilgan va barqaror tizim uchun
Mahalliy kengash vakolati	Ha/Yo'q	Ha (koeffitsiyent orqali o'zgartirish mumkin)	Yo'q (faqat respublika darajasida belgilanadi)	Soliq tartibini birxillashtirish
Tushumlar barqarorligi	%	O'rtacha 85–90%	Oshadi (barqaror stavka natijasida prognoz yuqori aniqlikka ega bo'ladi)	Mahalliy budjetlar barqarorligini oshiradi

²² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asosan ijara to'lovlariga kamayib yoki oshib boruvchi koeffitsiyent joriy etilishini bekor qilinishi natijasida turizm va ommaviy dam olishga ixtisoslashgan hududlarda (masalan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent shahri) ijara qiymatlari respublika o'rtacha darajasidan yuqori bo'lib, mavjud yagona stavkalar ushbu hududlarning iqtisodiy salohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli mahalliy hokimliklarga Toshkent shahri uchun belgilangan eng kam stavkagacha oshiruvchi koeffitsiyentlar (1,2–1,5x)ni joriy etish vakolatining berilishi adolatli va iqtisodiy asosli qaror deb hisoblaymiz.

Dissertatsiyaning **“Byudjet tizimiga jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlarni prognoz qilishda tartibga solish orqali soliq vositalaridan foydalanishni analitik imkoniyatlari, hududlarda bozor iqtisodiyotiga asosan soliq bazasini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliqlarni prognoz qilishning metodologiyasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish bo'yicha soliq bazasini shakllantirish jarayonlari yoritilgan.

Soliqlarni prognoz qilish jarayoni bir qator indikatorlarning o'zaro bog'liq holda aks ta'sirini baholab borishini taqozo etadi. Bu jarayonga respublikamiz soliq tizimida yetarlicha e'tibor berilmaydi. Shu boisdan biz tomonimizdan keltirilayotgan «jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar bazasining representativ soliq tizimi» aynan ushbu muammoni hal qilishga qaratilgan.

Representativ soliq tizimining mohiyati shundan iboratki, masalan, hududga markazlashgan investitsiyalarning oshishi hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilishi oqibatida yuridik shaxslardan olinadigan daromad solig'i bazasi kengayishi bilan birga bu mol-mulk solig'i bazasiga ham ta'sir qilishini, aholining real pul daromadlari oshishi esa, aholining uy-joylarni qurishini rag'batlantirish jarayonlarining tizimli bog'liqligini ta'minlaydi, o'z navbatida bu masalalar prognoz jarayonida muhim o'rin tutadi. Barcha soliqlar bazasiga ijobiy va salbiy ta'sir etuvchi indikatorlar o'zaro bog'liqda hududning mahalliy byudjetiga ta'siri va mahalliy byudjetlar qilinadigan xarajatlar orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bazasiga ta'siri ham alohida e'tiborga olinadi.

Tadqiqot ishida “Ichki va tashqi manbalar va omillarni sintezlash asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish metodologiyasi”ni soliq amaliyotida joriy etish taklif etilgan (2-rasm).

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha korxona va tashkilotlar tomonidan soliq hisobotlarini o'z vaqtida va to'liq topshirilishi soliq to'lovchining majburiyati sifatida qaraladi. Soliq hisoboti soliq organlariga shaxs faqat soliq to'lovchi deb e'tirof etiladigan soliqlar bo'yicha taqdim etiladi. Soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik soliq to'lovchining yoki soliq agentining zimmasiga yuklanadi. Ichki manba sifatida


kameral soliq tekshiruvda soliq to'lovchi (soliq agenti) tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotini, moliyaviy hisobotni, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida soliq organida mavjud bo'lgan boshqa hujjatlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish asosida soliq organi tomonidan soliq prognozi o'tkaziladi. Huddi shuningdek, sayyor soliq tekshiruvi jarayonida aniqlangan ichki, soliq agenti sifatida taqdim qilingan, soliq to'lovchining dividend to'lovlari bo'yicha, fuqarolar (soliq to'lovchi)ning soliq deklaratsiyalari, YaTT guvohnomalari bo'yicha manbalaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilgan holda jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlar bo'yicha kelgusi oy, chorak va yillar uchun soliq prognozlari qilinadi.

Tadqiqot ishida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan "Ichki va tashqi manbalar va omillarni sintezlash asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish metodologiyasi" prognoz jarayonidagi eng muhim element bo'lgan axborot manbalarini qulay tarzda yig'ish, ularni soliq turlari bo'yicha foydalanish jarayonlarini soddalashtirish, shuningdek, prognozni amalga oshirishda axborot manbalari va prognozga ta'sir qiluvchi omillarning o'zaro sintezlash asosida prognoz natijalarining obyektivligini oshirishga xizmat qiladi. Chunki, prognoz jarayonida axborot manbalari va prognoz jarayoniga ta'sir qiluvchi omillarning soliq turlari bo'yicha aniq guruhlash va ularning ichki bog'liqligini ta'minlash prognoz jarayonida katta ilmiy-uslubiy ahamiyat kasb etadi, bu jarayonni to'g'ri tashkil etish, prognozning keyingi bosqichlarining ishonchiligini oshiradi, olinadigan natijalarning obyektivligini ta'minlaydi, shu jihatdan olganda fikrimizcha, "Ichki va tashqi manbalar va omillarni sintezlash asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish metodologiyasi" katta amaliy ahamiyatga egadir.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishda bir qator omillar ta'siri tahlilini qilganmiz. Bu omillarni ikkita xususiyati mavjud. Birinchisi bevosita ta'sir etuvchi omillar bo'lsa, ikkinchisi bilvosita ta'sir etuvchi omillar bo'lib, ularni batafsil 2-rasmda ko'rib chiqqanmiz.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilishning tashqi axborot manbalari bo'yicha tahlilini qilganimizda asosan davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini aniqlashda davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlar bazasidan foydalanishni tartibga solish tizimidan foydalanganmiz. Bu bo'yicha Hukumat qarori²³ ishlab chiqilgan bo'lib, bunda, soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlariga oid davlat organlari va tashkilotlari ma'lumotlar bazasidan real vaqt rejimida foydalanishni tartibga solish belgilangan. Ushbu integratsiya asosida olingan ma'lumotlar bo'yicha prognoz qilish ishlarida qo'llaniladi.

²³ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 22.08.2022-yildagi 471-son Qarori




2-rasm. Ichki va tashqi manbalar va omillarni sintezlash asosida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini prognoz qilish metodologiyasi²⁴.

²⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

“Ko‘chmas mulklarni bozor qiymati asosida baholash orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish tartibi” soliq amaliyotiga joriy etish taklifi ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda ko‘chmas mulkni bozor qiymatlari asosida baholash orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish usullarini 3-rasmda keltirib o‘tganmiz. Bu metodologiyada taqqoslanadigan bozor narxi usuli asosida, prognoz qilish, ryealizatsiya qilish narxi usuli va xarajat usuli asosida prognoz qilish tahlil qilinib amaliyotga qo‘llash jarayonlar ketma-ketligini keltirib o‘tganmiz. Mazkur usullar asosida ishlab chiqilgan metodologiya soliq tushumlarini prognozlash jarayonlarini amaliyotga qo‘llashning izchil ketma-ketligini o‘z ichiga oladi. Jumladan, ko‘chmas mulk qiymatini aniqlash bo‘yicha ma’lumotlarni yig‘ish, bozor sharoitini tahlil qilish, prognoz natijalarini soliq ma’muriyatiga tatbiq qilish va yakuniy natijalarni baholash bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, taklif etilgan yondashuv jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish jarayonining ilmiy asoslanganligini oshiradi, soliq tizimidagi aniqlikni kuchaytiradi va davlat byudjeti barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishida “Ko‘chmas mulkni bozor qiymatlari asosida baholash orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish metodologiyasi” ishlab chiqilgan bo‘lib, taklif etilayotgan ushbu metodologiya jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i bo‘yicha soliq tushumlarini prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlashda o‘z ahamiyatiga egadir. Ma’lumki, soliq tizimida soliq bazasini adolatli shakllantirishda soliq obyektlarini, jumladan, ko‘chmas mulklarni bozor qiymatlari asosida baholash mexanizmlarini joriy etish jarayoniga keng e’tibor berilmoqdaki, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini prognoz jarayonida ko‘chmas mulklarni bozor qiymatlariga asoslanish bugungi kundagi dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan “Ko‘chmas mulkni bozor qiymatlari asosida baholash orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish metodologiyasi” aynan yuqoridagi masalaning samarali yechimini ta’minlab, jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘ini prognozi natijalarining aniqligini oshiradi, soliq tushumlarini byudjetga undirilishni ta’minlashda o‘ziga xos ilmiy ahamiyatga egadir.

Quyidagi 3-rasmdan kelib chiqib, taqqoslanadigan bozor narxi usuli asosida prognoz qilishning asosiy elementlari sifatida obyektning joylashuvi, yer maydoni va binolarning maydoni, iqtisodiy-ijtimoiy infratuzilmaga yaqinligi va bozordagi sotish vaqti mezonlari asosida taqqoslash amalga oshiriladi. Bu usul 3 ta bosqichdan iborat bo‘lib, birinchi bosqichda belgilangan hududdagi so‘nggi 6–12 oy ichida amalga oshirilgan mulk bitimlarining narxlari yig‘iladi, ikkinchi bosqichda barcha ma’lumotlar tahlil qilinib, o‘rtacha bozor narxi aniqlanadi, uchinchi bosqichda har bir jismoniy shaxs mulki uchun shunday analogik narx tanlanadi va soliq bazasi sifatida hisoblanadi. Realizatsiya qilish narxi usuli asosida prognoz qilish qo‘llash jarayonida obyektning hozirgi holati tahlili, talab va taklif darajasi tahlili, infratuzilma rivojlanganlik darajasi tahlili va kelgusidagi investitsion faoliyat kabi omillar tahlili mezonlar asosida amalga oshiriladi. Bu usul ko‘chmas mulk kelgusida qanday narxda sotilishi mumkinligini prognoz qilishga asoslanadi.



3-rasm. Ko'chmas mulkni bozor qiymatlari asosida baholash orqali jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilish metodologiya²⁵.

²⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
32


Xarajat usuli asosida prognoz qilish – ko‘chmas mulklarni baholashda iqtisodiy jihatdan asoslangan yondashuv bo‘lib, ayniqsa yangi qurilgan obyektlar, bozorda o‘xshashi mavjud bo‘lmagan noyob obyektlar hamda infratuzilmadan uzoqda joylashgan mulklar uchun qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ushbu usul obyektlarning qiymatini shakllantirishda mavjud qurilish infratuzilmasi, foydalaniladigan materiallar sifati va hududning iqtisodiy rivojlanish darajasini hisobga olish imkonini beradi. Xarajat usuli asosida prognoz qilish ham 3 ta bosqichdan iborat. Birinchi bosqich – obyektning barpo etishda qo‘llanilgan qurilish materiallari, jihozlar va xizmatlar bozoridagi amaldagi narxlarning yig‘ilishi. Bu jarayon bozor monitoringi orqali amalga oshiriladi va materiallar tannarxining to‘g‘ri shakllanishini ta’minlaydi. Ikkinchi bosqich – yig‘ilgan ma’lumotlar asosida obyektning umumiy xarajatlari hisoblab chiqiladi. Ushbu xarajatlar nafaqat qurilish materiallari va xizmatlarini, balki loyiha-smeta hujjatlari, loyiha ishlari va logistika xarajatlari ham o‘z ichiga oladi. Uchinchi bosqich – obyektning foydalanishga topshirilgan davridan kelib chiqqan holda uning eskirish darajasi baholanadi va umumiy tannarx tegishli tuzatishlar orqali qayta hisoblab chiqiladi. Eskirishni hisobga olish obyektning haqiqiy bozor qiymatini aniqlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Natijada, xarajat usuli asosida prognoz qilish jarayoni yangi yoki o‘xshashi yo‘q obyektlar qiymatini aniqroq belgilash imkoniyatini yaratadi va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognozlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, bu usul boshqa baholash metodlari bilan taqqoslaganda yuqori aniqlik va obyektivlikni ta’minlash xususiyatiga ega.

Ushbu metodologiyani amaliyotga keng tatbiq etish soliq tushumlarini rejalashtirishda aniqlikni oshirish bilan birga davlat moliya siyosatining barqarorligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, xarajat usuli asosida shakllangan ma’lumotlar boshqa baholash usullari bilan taqqoslash imkonini berib, ko‘p tomonlama tahlilni yanada mukammal qiladi.

Tadqiqot ishimizda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda soliq xavfini baholash uchun bir nechta ko‘rsatkich va algoritmlar qo‘llaniladi. Ularning asosiy maqsadi-soliq tushumlaridagi yo‘qotishlarni aniqlash, xavfli holatlarni bartaraf etish hamda prognoz aniqligini oshirishdir (4-rasmga qarang).

Ma’lumki, soliq tushumlarining byudjetga kelib tushishiga salbiy ta’sir qiluvchi omillar juda ko‘p bo‘lib, ularni baholash amaliyotda soliq xavfini baholash shaklida amalga oshiriladiki, bu jarayon o‘z navbatida soliq tushumlarini prognoz qilish jarayonida yetarlicha e’tiborga olinmayotganligi bugungi kundagi dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Ushbu muammoning yechimining metodologik asoslari sifatida tadqiqot ishida “Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda soliq turlari bo‘yicha soliq xavfini baholash metodologiyasi”ni tadqiqot ishida ishlab chiqildi.



4-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda soliq turlari bo'yicha soliq xavfini baholash metodologiyasi²⁶.

²⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mazkur metodologiya mohiyati shundan iboratki, avvalo prognoz jarayonida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, qat'iy belgilangan soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i bo'yicha soliq xavfi guruhlari aniqlanadi. So'ngra soliq xavfini baholash doirasida soliq xavfi mezonlari belgilanadi, ushbu mezonlarni aniqlovchi ko'rsatkichlar va xavf darajasini aniqlash algoritmi tizimli hamda bosqichma-bosqich ishlab chiqiladi.

Shuningdek, mazkur metodologiya doirasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni prognoz qilishda soliq turlari bo'yicha soliq xavfini baholash asosida byudjet yo'qotishlarini hisoblash hamda ushbu yo'qotishlarni prognoz jarayonida hisobga olish nazarda tutiladi. Natijada esa, jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlarining ishonchligi va aniqligi oshadi.

